

CHET TILLARNI O'QITISHNING DOLZARB VA ZAMONAVIY USULLARI**Narkenbayeva Asemgul****Chirchiq davlat pedagogika universiteti****Pedagogika fakulteti magistranti****narkenbayevaasemgul@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14783859>****Kirish**

Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktab, kollej, litsey, keyinchalik institutlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi asosiy ma'lumot to'plamlari bilan tanishgan holda o'rganadilar. Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabanning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi: Metodikaning asosiy tushunchalari - metod, usul, prinsip. Didaktika- nimani o'rgatamiz? o'qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika - qanday o'rgatamiz? ta'lim usullari va metodlari demakdir. Metod - metodika tushunchasi grek-lotinch "metodos- "metodus" so'zidan olingan bo'lib, ma'lum maqsadga eltuvchi yo'llar, usul ma'nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma'nosini uchratish mumkin. "Metodika" atamasi tor ma'noda ta'limning konkret dars jarayoni bilan bog'liq tushunchani anglatadi. Mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'quv materiallarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi. "Metod" atamasi keng ma'noda o'quv materialini tanlash, tabaqalash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Germaniya Federativ Respublikasida 60- yillardan boshlab "didaktika" va "metodika" tor ma'noda qo'llanilib kelinmoqda. Shunga ko'ra didaktika ta'lim mazmuni nima o'rgatiladi? Metodika esa ta'lim usullari qanday o'rgatiladi? Masalalari bilan shug'ullanadi. Chet tillarini o'rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o'zga madaniyat ta'limiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni o'rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta'lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo'lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi.

Muhokama: Xorijiy tilni o'rganish jarayonida madaniyatni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Madaniyatlararo aloqalar va tushunish, talabalar o'rtasida yanada chuqurroq o'zaro bog'liqlikni rivojlantiradi. O'qituvchilar xorijiy tillarni o'qitish jarayonida madaniyatni o'z ichiga olish orqali keng qamrovli bilim berishlari kerak. Zamonaviy texnologiyalar, ingliz tilini o'qitishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Onlayn platformalar, mobil ilovalar va multimedia vositalari orqali o'qitish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'ladi. Masalan, interaktiv darslar va onlayn resurslar orqali talabalar ko'proq motivatsiya topadilar.

Xulosa: Ko'plab tashkilotlar axborotni jo'natish va olish uchun multimedia imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi darajaga o'tmoqda. Kompyuterlar va boshqa qurilmalardan foydalanish butun ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Ta'lim jarayonida o'tkaziladigan treninglarda nutq ko'nikmalarini shakllantirishga va ijtimoiy

moslashuvchanlikni rivojlantirishga yetarli e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari ta'limda har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi.

References:

1. Hasanboy Rasulov "O'qituvchilar uchun metodik qollanma kitoblari".
2. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108 son Farmoni. -T.: -2020 yil 6 noyabr.
4. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kreditmodul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. -Toshkent, TKTI, 2020. -120 bet.
5. G'.B.Shoumarov,I.O. Oila psixologiyasi T.:2011-y,
6. Abdurasulov J., & Pardabayeva , M. (2024). MUSOBAQADAN OLDIN SPORTCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORLASH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(6 Part 2), 73–76. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/34717>
7. Burieva, K. E., & Kamilova, Z. A. (2022). The psychology of adolescence. Scientific progress, 3(4), 923-929.
8. Sh.Umarova 2024. Psychological Features Of Workers And Factors Affecting Them. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*. 2, 9 (Sep. 2024), 52–63.
9. X.Raximova 2024. Current Role And Requirements Of Digital Pedagogy. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*. 2, 9 (Sep. 2024), 38–51.
10. 2024. Psychological Features Of Workers And Factors Affecting Them. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*. 2, 9 (Sep. 2024), 52–63.
11. Абдурасулов, Ж. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХТЕХНОЛОГИЙ В УСВОЕНИИ УРОКОВ ИСТОРИИ.
12. Abduqodirova, D., & Abdurasulov, J. (2025). YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(1), 50–53. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/42882>
13. Жўраев , Ш. , & Абдурасулов , Ж. (2024). ҲАРБИЙ ЖАМОАДАГИ ИЖТИМОИЙ ФИКР. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(2), 97–103. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yoiti/article/view/28151>
14. Abdurasulov J. (2024). HARBIY PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI. Молодые ученые, 2(6), 48–52. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/yo/article/view/28164>
15. Турсунов А 2022 ЧАҚИРУВГА ҚАДАР БОШЛАНҒИЧ ТАЙЁРГАРЛИК МАШҒУЛОТЛАРИДА ПЕДАГОГИК ВА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ Science and innovation, 1(B3), 432- 434
16. Abdurasulov , J. (2022). HARBIY KOMPETENTSIYA KURSANTNING KASBIY MAHORATINI

SHAKLLANTIRISHNING KALITI SIFATIDA. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(11), 231–234. извлечено от <https://innovative-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/5326>

17. Abdurasulov , J. (2022). CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANI O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 983–988. извлечено от <https://innovative-academy.uz/index.php/ejar/article/view/5305>

18. Абдурасулов , Ж. (2024). ҲАРБИЙ ЖАМОАНИНГ ПСИХОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 2(2), 59–65.